

## CHET TILLARINI O‘RGANISH VA TIL BILISH SERTIFIKATLARIDA EGA BÒLISH KÒNIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI USTUVOR YONALISHLAR

*Teshaboyev Akramjon Yuldashevich.  
Andijon davlat chet tillar instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedra mudiri  
Gavharbekova Zebiniso Nodirbek qizi  
Andijon davlat chet tillari  
filalogiya va tillarni o‘qitish ingliz tili  
yo‘nalishi 203 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tilini o‘rganish va til bilish sertifikatig ega bo‘lish uchun ko‘nikma va yo‘nalishlar haqida yaqqol yoritib berilgan. Chet tillarini bizga qanchalik kerakligi va hayotimizdagi o‘rni qay darajada muhimligi tushuntiriladi. Mazkur maqolada chet tillarni o‘qitishda qo‘llaniladigan usul va metodlarning tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari va metodikani o‘qitish usullari tahlil qilinadi. **KALIT SO‘ZLAR:** chet tili, globallashuv, yangi qadriyat va madaniyatlar, fikrlash doirasi, madaniy va manaviy meros, davlat siyosati, metodika, o‘qish, tinglash, gapirish, grammatika, nazariya, til materiallari.

**Annotation:** This article provides a clear overview of the skills and directions for learning a foreign language and obtaining a language proficiency certificate. It is explained how much we need foreign languages and how important their role is in our lives. This article analyzes the concept, essence, characteristics of the methods and methods used in teaching foreign languages, and methods of teaching the methodology.

**Key words:** foreign language, globalization, new values and cultures, framework of thinking, cultural and spiritual heritage, state policy, methodology, reading, listening, speaking, grammar, theory, language materials.

Chet tillarini o‘rganishning afzalliklari sizning hayotingizning deyarli barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonish uchun sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Chet tilni o‘rganish juda muhimdir va chet tilini o‘rganish uchun son-sanoqsiz bunday sabablar mavjud. Chet tilni o‘rganish til to‘siqlarni yengishga yordam beradi va insonlarni o‘zaro tushunish chuqurroq darajasida bog‘laydi. Xo‘sh, keling endi til mutaxassisi bo‘lmagan o‘qituvchilarni nega til bilishi muhimligini gaplashamiz. Ayniqsa hozirgi kunda o‘qituvchilardan ingliz tilini bilish talab qilinmoqda. Bu nega kerak? Men bu haqida o‘zimning fikrlarimni berib o‘tmoqchiman. Hammaga ma‘lumki, dunyo tili sifatida ingliz tili tan olingan. Hozirgi ikkita yoshdan biri ingliz tilini o‘rganish harakatida yuribdi. Hech bo‘lmaganda ushbu tilga qiziqish bor. Bunday yoshlarga bilim berish uchun, qaysi soha o‘qituvchisi bo‘lsa ham ingliz tilida boshlang‘ich bilimi bo‘lishi kerak deb hisoblayman. Chunki yoshlar har doim taqlid qilishni sevishadi. Shuningdek, ingliz tilini bilish o‘qituvchilarning bilimini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Buning siri ko‘pgina ilmiy asarlar ingliz tilida yozilganidadir. Bemalol asarlarni asl nusxasini o‘qishga qodir bo‘ladilar. Yana bir muhim tarafi ingliz tilini bilish orqali hozirgi kundagi zamonaviy texnikalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish osonlashadi. Ingliz tili - texnika tili ham deyiladi. Deyarli barcha ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilida oson yoritilgan. Ayniqsa, hammaga ma‘lum pandemiya davrida masofaviy ta‘lim boshlandi. Bu esa, ko‘pgina ustozlar uchun qiyinchilik keltirib chiqazdi. Chunki hamma ustozlar birdek zamonaviy texnikalardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni bilmaydi. Ingliz tilini bilish bu muommalarga nuqta qo‘yadi.

Joriy yilda chet tillarini o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bunga davlatimizning mustaqillikdan keyin chet tilini rivojlantirishga qaratilgan farmon chora tadbirlari ham sabab bo‘lmoqda. Ta‘lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yamoqda. Shuningdek, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan chet

tillarini o'rgatish chora tadbirlari to'g'risida prezident qonuni chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Yurtimizda chet tilining o'qitilishi chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarining baholashining umumyevropa tavsianomalari “CEFR”ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi at'lim tizimining ajralmas qisimlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari har qanday kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Yuqorida aytib o'tilganlarning qatoriga o'quv kurslar yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi .1.Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi .Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni zamonaviy o'qitishning usullari bilan tanishishlari kerak .Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarli usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi .Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi .O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi .2.Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda .Til o'rganishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda .Ingliz tilini o'rganishda o'rganuvchining salohiyati va darajasi ,yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rganish yaxshi natija beradi .Bunday o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish ,o'rta bosqichda o'qitish ,yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi .Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomonidan maxsus dastur ishlab chiqiladi . Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim etibor beriladi.Harmerning ta'kidlashicha “ suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab bu talaffuz” dir .O'quv jarayoning boshlanishida o'qituvchi asosiy etiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak .Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, maruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa ,buning hammasi befoyda. Asl til egalari agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham so'zlovchining maqsadi nima ekanligini tushunishlari mumkin .Ingliz tilini o'rganishning o'rta bosqichida asosiy etibor ko'proq matnlarning hajmiga va o'qib tushunishda fikrlashni,nutq faoliyatini ,tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan usullardan foydalanish kerak .Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantrishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantrishga yetarli e'tibor berilishi kerak .Bundan tashqari ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil, erkin fikrlay oladilar va irodalari tarbiyalanadi .

Xorijiy tillarni o'rganishning 8 muhim sabablari

1. Yaxshi fikrlashga undaydi. Xorijiy tillarni o'rganish insonni ochiq fikrlashga undaydi va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashda singib ketish, ochiq fikrlaydigan, tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishning eng ishonchli usuli va bu mutlaqo bebahodir. Shuningdek tatqiqotlarning ko'rsatishicha bir necha tillarni bilish yaxshi fikrlash, muommolarni hal qilish va ijodkorlik bilan bog'liq. Shuningdek u odamlarga noma'lum va notanish vaziyatlarni yengishga yordam beradi.

2. Xotirani yaxshilashga yordam beradi. Bir tilni biluvchi bolalarga qaraganda ikki tilli bolalar o'z ongida hisoblash, yaxshiroq o'qish va shunga o'xshash ko'plab boshqa narsalarni yaxshiroq qilishlari malum. Ko'p til biluvchilar ketma-ketlikni yozib olish va eslashda yaxshiroq bo'ladilar. 3. Ko'plab do'stlar orttirish imkonini beradi. Chet tillarini o'rganayotgan insonlarda do'st orttirish imkoni ochiladi.Yangi va qiziqarli odamlar bilan tanishish mumkin.Til bu insonni his-tuyg'ularini, istaklarini ifoda etishga va atrofda boshqa odamlar bilan bog'lanishda yordam

beradi va mazmunli munosabatlarni shakllantiradi. 4. Ishlash imkonini oshiradi. Hozirgi kunda chet tillarini bilgan insonlar omadli insonlar hisoblanadilar. Chunki har bir inson uchun xorij tillarini bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallashtirilib bormoqda va ikki til bilish shunchaki qiziqish emas balki zamon talabidir. Chet tilini o'rganish ish topish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Hech kimga sir emaski chet tilini o'rganish ish bilan taminlash istiqbollarni yaxshilashi mumkin. 5. Yangi qadriyat va madaniyatlarni bilish. Malum bir til o'rganayotgan insonlarda aynan usha davlatni qadriyati va madaniyatini o'rganish imkonini beradi. Misol uchun bir inson bir chet tilini o'rganar ekan bevosita shu davlatning tili bilan bir qatorda uning madaniyati, qadriyati va urf-odatlarini o'rganadi. Bu esa bizga yanada ko'plab davlatlarni bilishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda til o'rganish “bir o'q bilan ikki quyovni urish” demakdir. Bir tarafdin til o'rganamiz va ikkinchi tarafdin esa davlatlar bilan yaqindan tanishamiz. 6. Aqliy qobiliyatimizni oshirishga imkon beradi. Miyamizning hajmi yangi so'zlarni va har bir yangiliklarni o'rganishimiz bilan ortib boradi. Bu degani ko'plab til bilishimiz o'zimizning sog'lig'imiz uchun ham zarur ekan. Olimlarning ilmiy tatqiqotlariga ko'ra tilni 3oy davomida chuqur o'rgangan insonlarda kulrang materiyaning hajmi oshganligini ko'rsatadi. Va bu hajm qanchalik harakat qilinganligiga qarab oshib boradi. Til o'rganishdagi yana eng muhim narsa bu - yosh hisoblanadi. Chunki kattalarga nisbatan yoshlarning eslab qolish qobiliyati kuchliroq. Shu sababli ham kattalarga nisbatan osonroq o'rganib olishadi. Mening fikrimcha chet tillarini o'rganishni yoshlikdan boshlagan foyda.

7. Ilmiy yutuqlarni oshiradi Til o'rganish akademik yutuqlarni qo'llab quvvatlaydi. Bu chet tilini o'rganayotgan ingliz tilida so'zlashuvchi talabalar, shuningdek ikki tilli va immersion dasturida ingliz tili o'rganuvchilari uchun amal qiladi. 8. Sayohat arzonlashadi va osonlashadi Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni hush ko'rishadi. Chet davlatga borganingizda til bilishingiz sizga juda foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganingizda o'zingiz hohlagan taomni tushuntira olasiz. Yo'l so'rashni ham o'zingiz mahalliy insonlardan so'rab, qiyinchiliklarsiz eplay olasiz. Agar siz o'zingiz bilan gid olganingizda juda ham qimmatga tushardingiz. Xulosa qilib aytganda, til bilish har bir inson uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Siz qancha ko'p til bilsangiz shuncha ko'p eshiklar siz uchun ochiladi. Aynan til bilish – dunyoni anglash demakdir. Chet tilini o'rganishning afzaliklari sizning hayotingizni deyarli barcha jabhalarida muvaffaq qozonishi uchun sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Til bu millatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tovchi vosita undan qo'rqmay hatlab o'tganlar yutuq va yangi olamlar kalitini qo'lga kiritadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Teshaboyev, N., Xalilov, A., & Sheraliyeva, Z. (2022). Formation of ecological culture in young people. *Science and innovation*, 1(7), 608-611.
2. Teshaboyev, N., Xalilov, A., & Sheraliyeva, Z. (2022). Formation of ecological culture in young people. *Science and innovation*, 1(7), 608-611.
3. Тешабоев, А. Ю., & Умнова, М. К. (2021). МИРОВОЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РАБОТНИКОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 89-91.
4. Тешабоев, А. Ю., & Умнова, М. К. (2021). МИРОВОЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РАБОТНИКОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 89-91.
5. Teshaboyev, A. Y. (2024). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARI VA METODLAR. *GOLDEN BRAIN*, 2(8), 175-180.
6. Teshaboyev, A. Y. (2024). BRIDGING THE GAP BETWEEN EDUCATION AND HEALTHCARE FOR HOSPITALISED CHILDREN. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(4), 54-57.
7. t.memedium.com. " Til o'rganish kaliti"